

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA‘LIM SOHASIDA
AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR TIZIMI VA UNING
AHAMIYATI.**

Kurbondurdiyeva Hilola

O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti,

Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi yo‘nalishi

1-kurs talabasi

Tel.: (88) 923-20-27

O‘zMU dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

M. Atavullayev taqrizi asosida.

Annotatsiya : Ushbu maqolada ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ta‘lim sifatini oshirish , innovatsion ta‘lim texnologiyalarini joriy etish, o‘quv jarayonlarini zamonaviy standartlarga moslashtirish va xalqaro tajribalardan samarali foydalanish kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi,. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi yosh avlodning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash, ularni raqobatdosh shaxslar sifatida shakllantirish va mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo‘shuvchi kadrlar yetishtirishdir .

Kalit so‘zlar: ta‘lim , islohot , Konsitutsiya , maktab ,Uchinchi Renessans, oliy ta‘lim, ta‘lim-tarbiya , ma‘naviyat, inklyuziv ta‘lim.

**THE SYSTEM OF REFORMS BEING IMPLEMENTED IN THE
FIELD OF EDUCATION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND
THEIR SIGNIFICANCE.**

Annotation. This article examines the reforms in the field of education aimed at improving the quality of education, introducing innovative



teaching technologies, aligning the educational process with modern standards, and effectively utilizing international experiences. The primary goal of these reforms is to strengthen the knowledge and skills of the younger generation, shape competitive individuals, and prepare professionals who contribute to the country's economic and social development.

Keywords: education, reform, Constitution, school, Third Renaissance, higher education, upbringing, spirituality, inclusive education

СИСТЕМА РЕФОРМ, ПРОВОДИМЫХ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН, И ИХ ЗНАЧЕНИЕ.

Аннотация: В данной статье рассматриваются реформы в сфере образования, которые направлены на повышение качества обучения, внедрение инновационных образовательных технологий, адаптацию учебного процесса к современным стандартам и эффективное использование международного опыта. Основная цель этих реформ – укрепление знаний и навыков молодого поколения, формирование конкурентоспособных личностей и подготовка кадров, способствующих экономическому и социальному развитию страны.

Ключевые слова: образование, реформа, Конституция, школа, Третий Ренессанс, высшее образование, обучение и воспитание, духовность, инклюзивное образование.

Kirish :Avvalo, shuni ta'kidlab o'tish joizki , ta'lim deganda biz nimani tushunamiz? Ta'lim haqida so'z yuritganda , bu sohada insonlarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ularning dunyoqarashini kengaytirish uchun ishlab chiqilgan tizimli jarayon tushuniladi .Ta'lim har bir insonning shaxsiy rivojlanishi , ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishishi va jamiyatda faol o'rin egallashi uchun asosiy omil hisoblanadi . Prezidentimiz

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'lim tizimiga alohida e'tibor berib , keng ko'lamda islohotlarni amalga oshirmoqda .Jumladan, maktabgacha ta'limni rivojlantirish, ularning sonini oshirish rejalashtirilgan. Bundan tashqari oliy ta'limda talabalarga imtiyozli ta'lim kreditlari berilishi uchun ajratilgan mablag'lar ikki barobar oshirildi .Shuningdek , amalga oshirilayotgan islohotlar orasida o'quv dasturlari va metodikalarni modernizatsiya qilish, o'qituvchilarning malakasini oshirish hamda ta'lim sifati uchun yangi reyting tizimini joriy qilish kabilar ham mavjud. Ta'lim tizimida o'quvchilarni faqatgina yodlashga emas , balki mantiqiy fikrlashga o'rgatadigan yangi metodika Finlandiya tajribasi asosida kiritilmoqda . Sizda Finlandiya ta'lim tizimi , u qanday tizim degan savol tug'ilishi mumkin. Finlandiya ta'lim tizimi dunyo bo'ylab mashhur bo'lib, o'quvchilarni markazga qo'yuvchi yondashuv , tenglikka e'tibor va har tomonlama rivojlanishga urg'u berish bilan ajralib turadi. Ta'lim jarayoni 3-6 yoshli bolalar uchun maktabgacha ta'limdan boshlanib, bu dastur subsidiyalangan va "o'yin orqali o'rganish "modeliga asoslanadi.Bu davlatda bolalar 7 yoshdan boshlab maktabga boradi, dars soatlari esa qisqa va o'yin tarzida olib boriladi , dam olish uchun ko'p vaqt ajratiladi. Shuningdek Finlandiyada o'qituvchilar yuksak malakaga ega bo'lib , ular o'quv dasturlarini mustaqil ravishda ishlab chiqish huquqi berilgan.[1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (literature review)

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab ta'lim tizimida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Hamda ta'lim sohasidagi islohotlar zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ta'lim sifatini oshirish va yoshlarni ijodiy fikrlashga o'rgatish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Asosiy maqsad ta'limni xalqaro standartlarga moslashtirib , jahon talablariga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlashdir . Ushbu islohotlar quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:



- Ta'lim sifatini yaxshilash: O'quv dasturlari zamonaviy talablarga mos ravishda yangilandi. Bu jarayonda o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.
- Innovatsion texnologiyalarni qo'llash: Raqamli resurslar, masofaviy ta'lim platformalari va boshqa zamonaviy texnologiyalar o'quv jarayoniga joriy qilindi. Bu o'qituvchilarning va o'quvchilarning o'zaro muloqotini mustahkamlashga yordam berdi.
- Ta'limni xalqaro standartlarga moslashtirish: Ta'lim tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va jahon tajribasidan foydalanish orqali milliy ta'lim tizimini rivojlantirish maqsad qilingan. Shu asosda yangi o'quv dasturlari va pedagogik metodlar joriy etildi.

Bu islohotlar yosh avlodni zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli bo'lishiga tayyorlash va jamiyatni barqaror rivojlantirish uchun muhim hisoblanadi. Ta'lim tizimidagi bu yondashuvlar natijasida mamlakatda ijtimoiy faol, yetuk shaxslarni shakllantirish rejalashtirilmoqda.[2]

2018-yilda O'zbekistonda ta'lim sohasida bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi. Bu yillarda o'rta ta'lim tizimiga o'zgartirishlar kiritilib, 9 yillik majburiy ta'lim 11 yillik shaklga qaytarildi. Bu o'zgarish o'quvchilarga akademik yoki kasbiy yo'nalishda chuqur bilim olishga yordam berishni maqsad qilgan edi. Natijada, o'quvchilar kasbiy tayyorgarlikni yaxshilab, mehnat bozoriga tayyor bo'lishlari mumkin bo'ldi. Bundan tashqari, oliy ta'limda qabul jarayonini kengaytirish uchun "super-kontrakt" tizimi joriy etildi. Ushbu tizim orqali kirish imtihonlaridan o'ta olmagan talabalar kontrakt to'lovini oshirgan holda oliy ta'limga qabul qilinish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bu esa oliy ta'lim olish imkoniyatlarini oshirdi. Hamda mamlakatda xalqaro ta'lim standartlariga moslashish jarayoni ham boshlanib, tadqiqotlar va xalqaro hamkorliklar rivojlantirildi. Shuningdek, erta bolalik



ta'limiga alohida e'tibor qaratilib, Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Bu islohotlar O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish va global ta'lim tendensiyalariga moslashishga qaratilgan edi.

2019-yilda O'zbekistonda ta'lim sohasida quyidagi o'zgarishlar amalga oshirildi:

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish: O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quv jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish va ta'lim sifatini oshirish uchun muhim qadamlar qo'yildi. Bu jarayon Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlanib, ta'lim tizimida yangi huquqiy me'yorlar ishlab chiqildi.

Ta'lim sifatini oshirish: Ta'lim sifatini yaxshilash uchun xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon banki bilan hamkorlikda milliy ta'lim dasturlarini qayta ko'rib chiqish va yangilash rejalashtirildi. Bu maktablar va oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayonining yanada samarali va zamonaviy bo'lishini ta'minlashga yo'naltirilgan edi.

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish: 2019-yilda maktabgacha ta'lim tizimiga e'tibor kuchaytirildi. Bu yilda maktabgacha ta'lim muassalari va xususiy ta'lim muassasalari soni oshirildi. Maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish maqsadida investitsiyalar jalb qilindi.

Oliy ta'limni rivojlantirish va yangi universitetlar ochish: Oliy ta'lim tizimini kengaytirish va xalqaro darajadagi yangi oliy ta'lim muassasalarini ochish orqali ilmiy va akademik sohada rivojlanish bo'ldi. Xususan, xorijiy universitetlar va filiallari ochildi, bu yoshlarning xorijda o'qish imkoniyatlarini yurt ichida ham ta'minladi.



Ta'limda raqamlashtirish: 2019-yilda raqamli ta'lim tizimini joriy etish va onlayn ta'lim resurslarini rivojlantirishga e'tibor kuchaydi. Shu yildan boshlab ta'lim sohasida axborot texnologiyalaridan foydalanish yanada kengaytirilib, o'quvchilar va o'qituvchilarga qulay shart-sharoitlar yaratildi. Bu o'zgarishlar O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uni zamon talablariga moslashtirishga yo'naltirilgan edi. [3]

Bilamizki, Respublikamizda har bir fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlangan. Ayniqsa, ta'lim to'g'risida keng imkoniyatlar yaratildi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasining 2-bo'lim, 9-bob, 50-moddasida shunday deyiladi: "Har kim ta'lim olish huquqiga ega.

- Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi.
- Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.
- Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir.
- Maktabgacha ta'lim va tarbiya umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir.
- Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi. [4]

Tadqiqot metodologiyasi(research methodology)

O'zbekiston hukumati shuningdek, qishloq hududlaridagi ta'lim sharoitlarini yaxshilashga e'tibor qaratmoqda. Yangi maktablar qurilishi, maktabgacha ta'lim qamrovini oshirish va oliy ta'lim muassasalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish ham bu rejaga kiradi. Shu bilan birga, o'qituvchilarning oylik maoshini ko'tarish va ularning ijtimoiy ta'minotini yaxshilash, jumladan, oliy toifali o'qituvchilarga ko'proq imtiyozlar yaratish



mo'ljallangan. Bu o'zgarishlar ta'lim sifatini oshirishga, yoshlarni kasbga yo'naltirishga va ularni yangi iqtisodiy sharoitlarga moslashtirishga qaratilgan. Shuningdek, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va xalqaro aloqalarni mustahkamlash maqsadida O'zbekiston universitetlari xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish uchun ko'plab memorandumlar va loyihalar imzolandi, hamda yuqori sifatli ta'lim tizimi va teng imkoniyatlarni ta'minlash masalalariga e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga Prezident tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro fan olimpiadalarida ishtirok etayotgan o'zbekistonlik yoshlarning muvaffaqiyatga ham katta hissa qo'shmoqda. Muvaffaqiyatli qatnashgan o'quvchilarga moddiy mukofotlar ajratilishi davlat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanyapti. Jumladan, oltin medal olgan o'quvchiga 170 million so'm, kumush medal olgan o'quvchiga 168 million so'm va bronza medal olgan o'quvchiga 102 million so'm mukofot belgilangan. Shuningdek, ularning o'qituvchilari ham 50 milliondan 150 million so'mgacha mukofotlanadi. Hamda yoshlarni xalqaro olimpiadalarga tayyorlash uchun O'zbekiston Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzurida maxsus "Fan olimpiadalari markazi" tashkil etilgan bo'lib, bu markaz yoshlarga fanlarni chuqur o'rgatish, intellektual oromgohlar tashkil etish va maxsus tayyorgarlik dasturlari orqali ularni raqobatlariga tayyorlaydi.

2018-yildan boshlab davlat va xususiy maktablar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirilib, xususiy maktablarga yangi imtiyozlar berildi, bu esa xususiy maktablar sonining o'sishiga olib keldi. Davlat o'quv muassasalari bilan bir qatorda xususiy maktablar uchun soliq imtiyozlari, kredit foizlarni kamaytirish va kommunal xizmatlar, to'lovlarni qisman davlat tomonidan qoplash imkoniyati berilmoqda, bu o'zgarishlar mamlakatning ta'lim sohasidagi islohotlarining bir qismi hisoblanadi. Xususiy sektorning ta'lim tizimiga kirib kelishi ta'lim sifatini oshirishga,



tanlov imkoniyatlarini kengaytirishga va davlat ta'lim muassasalaridagi yukni yengillashtirishga qaratilgan. Bu islohotlar O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish va xalqaro standartlarga mos keladigan ta'lim tizimini shakllantirish yo'lidagi muhim qadam sanaladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi qonunlar va ularning o'zgarishlari ta'lim sifatini oshirish, yoshlarni global talablarga mos yetuk kadrlar sifatida tarbiyalash uchun xizmat qilmoqda. Qabul qilinayotgan qonunlar va o'zgarishlar ta'lim tizimida yangi imkoniyatlar yaratib, global talablarga mos yetuk yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu masalalar quyidagi qonunlar orqali amalga oshirish rejalashtirilgan.

2020-yildagi Ta'lim to'g'risidagi Qonun:

Ushbu qonunning o'zgartirilishi bilan ta'limning zamonaviy talablarga moslashishi ta'minlandi. Asosiy jihatlar:

- **Majburiy Ta'lim:** Majburiy ta'lim 11 yil qilib belgilandi, unga boshlang'ich va o'rta ta'lim kiritildi.
- **Raqamli Savodxonlik:** O'quv dasturiga dastlabki bosqichlardan boshlab AKT va raqamli ko'nikmalar kiritildi.
- **Ta'lim Turlari Turfa-xilligi:** Xususiy maktablar va kasb-hunar ta'limini rivojlantirish yo'lga qo'yildi.
- **O'qituvchilarni Qo'llab-quvvatlash:** O'qituvchilarga malaka oshirish va yangi bilimlar o'rganishga keng imkoniyatlar yaratildi.

Raqamli Ta'lim Tashabbuslari to'g'risidagi Qonun:

Ta'limdagi raqamlashtirish jarayoni sezilarli rivojlandi:

- **E-Ta'lim Platformalari:** Pandemiya davrida masofaviy ta'lim platformalari ishga tushirildi.



- Raqamli Savodxonlik Dasturlari: Talaba va o'qituvchilarning AKT bo'yicha bilimlarini oshirish dasturlari kiritildi.
- Smart-sinflar va Raqamli Infratuzilma: Qishloq va shahar maktablariga internet bilan ta'minlangan smart sinflar joriy etildi. Ushbu o'zgarishlar yoshlarimiz yanada ko'proq bilim olishga , o'qituvchilarni hurmat qilishga , ularni qadrini oshirishga va ta'limni jahon standartlariga moslashtirishga qaratilgan edi.[5]

Tahlil va natijalar (analysis and results)

Prezidentimiz davlat boshqaruviga kirishgan ilk kundanoq katta iqtidor bilan “Bugun munosib yashash “ tamoyilini ilgari surdi . Shundan odamlarda fikrlar uyg'ondi. Shundan o'zligimizni taniy boshladik . O'zlik esa ta'limdan mavjlanadi. Nihoyat , endilikda yetti yillikning oqilona rejalarining amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan «O'zbekiston-2030 « strategiyasi Yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevoridir qurishdek ezgu maqsad sari tashlangan muhim qadam bo'ldi.[6] Beshta yo'nalish, yuzta asosiy maqsadni birlashtirgan mazkur normativ-huquqiy hujjatda mamlakatimiz kelajagi bilan bog'liq bo'lgan ta'lim tizimi islohotlariga asosiy e'tibor qaratilgan . Zotan, jadid mutafakkiri Abdulla Avloniy ta'kidlaganlaridek , «Ilm dunyoning izzati . Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir . Zeroki, Ilm o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur . Zehnimizni , fikrlarimizni Qilich kabi o'tkir qilar « . Ilm-ma'rifat , ta'lim-tarbiya, ma'naviyat insonni kamolotga yetaklovchi, unga najot, kuch beruvchi buyuk ne'mat ekani, bugungi tezkor va shiddatli dunyoda yanada yaqqol namoyon bo'lyapti. Ushbu strategiyada , xususan, yoshlarni oliy ta'limda ta'lim olishini kamida 50 foizga yetkazish, ta'lim tizimini xalqaro mehnat bozoridagi o'zgarishlar , texnologik jarayonlarni mos tashkil etish, oliygohdagi ta'lim sifatini yangi

bosqichga olib chiqish orqali 10 ta O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarini dunyoning eng nufuzli «Top-1000» oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritish hamda 30 ta oliygohlarning ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazishga erishish maqsadlari belgilangan.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida 33 942 ta maktabgacha ta'lim agentligi faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 2023/2024-yil o'quv boshida 10 750 taga yetdi. Hamda 2023-yilda 7 ta oliy ta'lim muassasi faoliyati yo'lga qo'yilib, ularning soni 213 taga yetgan. Shulardan 116 tasi davlat, 67 tasi nodavlat, 30 tasi esa xorijiy oliy ta'lim muassasalaridir.[7]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar katta ahamiyatga ega. Chunki ta'lim insonni o'stiradigan, fikrlashni, ongni rivojlantiradigan, o'zini o'zligini anglashga yordam beradigan, inson o'zi nima uchun yaratilgani, u nima uchun yashayotganini tushunib yetishga undovchi vositadir. Inson bu dunyoga kelibdiki, u o'zligini topishga harakat qiladi, o'zini rivojlantirishga intiladi, bularning negizida ilm yotadi. Hattoki, muqaddas Hadisda shunday deyiladi: "Bir soatlik ilm o'rganish-bir kechalik ibodatdan yaxshidir. Biz ilimli bo'lishimiz uchun ta'lim olishimiz, ko'proq kitob o'qishimiz zarur. Davlatimiz ham shuning uchun ta'lim sohasiga alohida e'tibor bermoqda. Chunki davlat kelajagi yoshlar qo'lidadir. Davlat qachon rivojlanadi, yuksaladi, qachonki o'sha davlatning bolalari aqlilli, mantiqiy fikrlashi kuchli, har tomonlama barkamol, keng mushohadali bo'lsagina. Bizning Prezidentimiz ham yoshlarimiz shunday bo'lishi uchun ta'lim to'g'risida ko'plab farmonlar, qarorlar qabul qilmoqda, ma'ruzalar so'zlab yoshlarni bilim olishga undamoqda. Men shuni aytmoqchimanki, biz O'zbekiston fuqarolari ta'lim to'g'risidagi islohotlarga befarq bo'lmasligimizni, ta'lim to'g'risida o'z fikr-mulohazalarimizni bildirishimizni, kengroq mushohada olib borishimizni, shuningdek, bugungi





kunda bizga berilayotgan imkoniyatdan unumli foydalanib , qunt bilan o‘qib-o‘rganishni , ta‘lim olishini so‘ragan bo‘lardim.

Adabiyotlar

- 1.The Borgen Project va thisis FINLAND saytlari
- 2.O‘zbekiston Milliy axborot agentligi 2019 yil 2-dekabrdagi PQ-4541-sonli qarori
- 3.President.uz va uzedu.uz saytlari
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Konsitutsiya 2023-yil 30-apreldagi yangi tahriri
- 5.“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va davlat dasturlari “2019 yil 1-fevraldagi PT-5650 sonli qarori
6. Kutubxona. uz jurnali N_4(60) 2023
7. Lex.uz va Xalq Ta‘lim Vazirligi saytlari

